

**INVESTITSIYA SALOHİYATI VA UNING TURLARI****G'oymatova D.G'***Andijon mashinasozlik instituti Iqtisodiyot kafedrası assistent***Iminjonova Mubina***Andijon mashinasozlik instituti Iqtisodiyot talaba*

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni faol jalb etish hamda investitsiyalar to'g'risidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, shuningdek, hududlarda investitsiya muhitini izchil yaxshilab borish, xorijiy mamlakatlarning ushbu faoliyat bo'yicha huquqiy tartibotlari, ular amal qilishiga asos bo'lgan institutsional normalar va mexanizmlarni bilishni talab etadi. Ma'lumki, jahondagi biron-bir mamlakat xorijiy sarmoyalarni jalb qilmasdan turib taraqqiyotga hamda iqtisodiyot rivojiga erisha olmaydi. Shu bois ham bu ish mamlakatimizning iqtisodiy - huquqiy siyosatida ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan [1, 2, 3, 4].

Mamlakatimizdagi mavjud qonunchilik bu borada sarmoyadorlarga bir qator kafolat va imtiyozlar berishini ta'minlashini ham alohida aytib o'tishimiz lozim. Shu o'rinda xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotimizda naqadar zarurligini e'tirof etgan holda: xorijiy sarmoyadorlarning O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan investitsion siyosatiga, qonun ustuvorligiga, eng asosiysi to'lov qobiliyatiga qodir bo'lgan kuchli sherik sifatida ishonchlarini qozonish lozim. Buning uchun iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni asosan to'g'ridan to'g'ri kapital sarmoyalar ko'rinishida keng jalb qilinishi uchun huquqiy, ijtimoiy iqtisodiy va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish, qo'shma korxonalar tashkil etilishiga ko'maklashish, shuningdek, investorlar manfaatlari himoya qilinishini takomillashtirish zarur. Bularning barchasi bu boradagi qonunlarni va qonunosti hujjatlarini puxta bilishni talab etadi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shularjumlasiga kiradi [5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14].

An'anaviy tarzda investitsiya deganda kelgusida ko'zda tutilgan daromadlarni olish maqsadida hozirda aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish tushuniladi. Investitsiya mohiyatini tavsiflashdagi bunday yondashuvga milliy, shu bilan birga, xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda birlamchi e'tibor beriladi. Shu bois yurtimizda chet el sarmoyasi ishtirokidagi sanoat korxonalari sonini ko'paytirish hamda mahalliy xom ashyodan eksportbop mahsulotlar tayyorlashga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bunda xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay investitsiya muhiti muhim omil bo'lmoqda. Bu borada, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlab o'tdilar, "Ma'lumki, mamlakatimizning chet davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarini yanada mustahkamlash va xorijda respublikamizning iqtisodiy imkoniyatlarini keng targ'ib qilish orqali uning xalqaro nufuzini yanada oshirish, investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirish, turizm sohasini yanada rivojlantirish iqtisodiy sohadagi ustuvor vazifalarimizdan biri hisoblanadi"[15, 16, 17, 18, 19].

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda. Iqtisodiy barqarorlikka erishishda investitsiyaning ahamiyati katta. Investitsiya milliy iqtisodiyotda nisbatan yangi termin hisoblanadi. Investitsiya (lot. investio – o‘rash) - iqtisodiyotni rivojlaltirish maqsadida o‘z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo‘yish)dir. «Salohiyat» tushunchasining turli xil talqinlarini ko‘rib chiqqan holda, innovatsion salohiyat ta‘rifiga to‘xtalamiz. «Salohiyat» tushunchasi lotincha «potentia» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «imkoniyat, kuch, qudrat» degan ma‘nolarni bildiradi. Katta iqtisodiy lug‘atda «salohiyat» tushunchasi «mavjud vositalar majmui», «har qanday sohadagi imkoniyatlar, mavjud manbalar, vosita, zahira» sifatida ta‘riflanadi. «Salohiyat» tushunchasining yuqorida keltirilgan talqinlarning umumiy jihati sifatida muayyan maqsadlarga erishishda talab qilinadigan, zarur bo‘lgan ba‘zi vositalar majmuining, nimanidir amalga oshirilishida qandaydir imkoniyatlarning mavjudligidan tashkil topgan [20, 21].

Investitsiya salohiyati – mamlakatda asrlar davomida shakllangan bir qancha omillar yig‘indisini tavsiflaydi. Bu omillar ishlab chiqarish omillari, tabiiy resurs omillari, mehnat omillari, innovatsiya va iste‘mol omillari hamda mamlakatning moliyaviy salohiyati kabilarni qamrab oladi [22].


Investitsion salohiyat – bu investitsiyalash obyektlari mavjudligi va xilma-xilligiga qarab investitsiyalar va biznesni istiqbolda rivojlantirish uchun mavjud obyektiv shart-sharoitlar yig‘indisi ko‘rinishidagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlarini hisobga oladigan miqdoriy belgidir. Ya‘ni, investitsion salohiyat hududning joriy davrdagi amalga oshirilmagan potensial imkoniyatlaridan foydalanib iqtisodiy rivojlanish va o‘shishga erishish hisoblanadi.

Investitsiya salohiyati foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan aktivlarga mablag‘ kiritish (qo‘yish) imkoniyatlari darajasini xarakterlaydi [23, 24, 25, 26, 27].

Iqtisodiyotda investitsiya salohiyati, investitsion faoliyatni samaradorligini oshirish orqali mamlakatning barcha iqtisodiyot tarmoqlarida ijobiy natijalarga erishish mumkin. Shuning uchun ham mamlakat darajasida investitsiya siyosatini amalga oshiruvchi maxsus davlat tashkiloti tuzilib, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o‘rtasida ularning imkoniyati, tutgan o‘rni, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda investitsiyalarni jalb etishda mutanosiblikni ta‘minlash mazkur tashkilotning muhim vazifalaridan biri bo‘lmog‘i lozim. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o‘ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta‘minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo‘lmoqda. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanilishi natijasida mamlakatimizda yangi sanoat korxonalari vujudga kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, sifatli va yuqori raqobatbardosh mahsulotlar ishlab

chiqarishga, eng muhimi yangi ish o‘rinlarini yaratilishiga, shuningdek, mamlakatimiz eksport salohiyatining yuksalishiga imkon yaratmoqda.

Investitsiya salohiyati turlari 1-rasmda keltirilgan.



### 1.2.1-rasm. Investitsiya salohiyati turlari

➤ Tabiiy resurslar salohiyati – mineral resurslar (foydali qazilmalar), iqlim sharoitlari, mamlakatning geosiyosiy joylashuvi, yer, suv resurslari, o‘simlik va hayvonot dunyosi.

➤ Mehnat salohiyatiga iqtisodiy faol aholi soni, uning yosh tarkibi, joylashish zichligi, bilim dsrajasi, shunihgdek mehnatning o‘rtacha qiymayi kabilar kiradi. Odatda xorijiy investorlarni malakali va arzon ishchi kuchiga ega hududlar qiziqtiradi.

➤ Ishlab chiqarish salohitati – bu salohiyat mamlakatda yaratilgan ishlab chiqarish quvvatlari, sanoat, qazib chiqarish va qayta ishlovchi tarmoqlarning o‘zaro nisbati, muvaffaqiyatki amalga oshirilgan investitsion loyihalar miqdori, kichik biznesning rivojlanish darajasi va boshqalar bilan bog‘liqdir

➤ Iste‘mol salohiyatida investor tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning ichki bozorda sotilishi ko‘rib chiqiladi. Bunda talab, raqobat va aholining daromad darajasi baholanadi.

➤ Innovatsion salohiyat ilmiy yutuqlar, mamlakatdagi ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga xarajatlar, texnika va texnologiyalarni yangilanish darajasi, yahgilik va kashfiyotlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

➤ Moliyaviy salohiyat mamlakatning moliyaviy imkoniyatlari, iste‘mol va jamg‘armaning nisbati, bank sohasidagi deposit va pul kredit siyosati, tashqi qarz, ichki zahiralalar va boshqalar bilan xarakterlanadi [28, 29, 30, 31, 32, 33].

Mavjud investitsion salohiyatdan oqilona foydalanish kontekstida tadbirkorlik faoliyatining keng rivojlanishiga va pirovard natijada yangi ish o‘rinlari yaratilishi orqali aholining turmush farovonligini oshirilishini ta‘minlaydi. Natijada aholi daromadlarini izchil ortishi hisobiga iqtisodiyotdagi yalpi talabning kengayishi ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Investitsiya salohiyati makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida baholanib, o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- hududda ishlab chiqarish omillari va iste'mol talabining mavjudligini;
- xo'jalik faoliyati natijalarini;
- ilm-fan rivojlanishi va yutuqlarining joriy qilinganlik darajasini;
- etakchi investitsiya institutlarning rivojlanganligini;

➤ majmuali infratuzilma bilan ta'minlanganligini. Investitsiya tavakkalchiligi darajasi investitsiyalar va ulardan keladigan daromadni yo'qotish ehtimoli nuqtai nazaridan, keng qamrovli ko'rsatkichlar asosida, shuningdek, investitsiya salohiyatining har bir tashkiliy qismi va har bir tavakkalchilik bo'yicha hududiy reyting baholanadi [34, 35, 36, 37, 38].

Investitsiya faoliyati rivojiga mamlakatdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, har qanday davlat iqtisodiyoti mazkur soha rivojisiz me'yorda faoliyat ko'rsata olmaydi. Mikro darajada investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirish mamlakat iqtisodiyoti, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini inobatga olgan holda ularning investitsion salohiyatni shakllantirish manbalari tarkibini optimallashtirish va ulardan maqsadli foydalanishni tahlil qilishni nazarda tutadi. Investitsiya faoliyati rivojiga ishtiroki darajasi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Davlat (hukumat, vazirlik va muassasalar) nafaqat investitsiya siyosatini (investitsiya dasturlarini) ishlab chiqishlari, balki ushbu jarayonda (ularni amalga oshirishda) faol ishtirok etishlari ham zarur. Bunda ular budjetni rejalashtirish jarayonida yo'nalliriladigan mablag'lar hajmini aniqlashlari va qat'iy nazorat qilishlari lozim. Mamlakatimizda bu vaziyatni (manzarani) ijobiy baholash mumkin, jumladan, maqsadli va samarali investitsiya siyosatining olib borilishi, Davlat investitsiya dasturining amalga oshirilishi, strategik ahamiyatga bo'lgan obyektlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini alohida qayd etish joiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdullin R.Z, Anapolskiy L.Yu. i dr. Metod vektornix funktsiy Lyapunova vteorii ustoychivosti. M.: Nauka, 1987.-312 s.
2. Barbashin E.A. Vvedeniya v teorii ustoychivosti dvijeniya. M.: Nauka, 1967.
3. Barbashin E.A. Funktsiya Lyapunova. M.Nauka. 1970.
4. Dilafruz G. SISTEMALAR TURG'UNLIGI //International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2024. – T. 12. – №. 5. – С. 445-449.
5. Дилафруз Г. ИЗУЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ СТАНДАРТНЫМ МЕТОДОМ //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості, 2024. – №. 10 (203). – С. 44-45.
6. G'oymatova D. O 'RGANILAYOTGAN JARAYONNING NORMALLIGINI TEKSHIRUVCHI MATEMATIK MODEL ADEKVATLIGI //Экономика и социум. – 2024. – №. 3-2 (118). – С. 118-122.

7. Yusupova R. K. ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF COMPACT YARN DEVICES ON SPINNING MACHINES //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 458-466.
8. Yusupova R. K. burilish mashinasini takomillashtirish / / ilmiy va ta'lim tadqiqotlarida innovatsiyalar jurnali. – 2023. - Jild 6. – №. 3. 163171-sahifa.
9. Мамажонов З. А., ўғли Зулфиқоров Д. Р. САБЗИНИНГ КЕСКИЧ ТИФИГА ТАЪСИР КУЧИНИ АНИҚЛАШ //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 476-481.
10. Беккулов Б. Р., Атабаев К., Рахмонкулов Т. Б. ОПРЕДЕЛЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА ШАЛЫ В СУШИЛЬНОМ БАРАБАНЕ //Бюллетень науки и практики. – 2022. – Т. 8. – №. 7. – С. 377-381.
11. Беккулов Б. Р., Собиров Х. А., Рахманкулов Т. Б. РАЗРАБОТКА И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ МОБИЛЬНОГО УСТРОЙСТВО ДЛЯ СУШКИ ШАЛА //Энергоэффективные и ресурсосберегающие технологии и системы. – 2020. – С. 429-438.
12. Rano Y., Asadillo U., Go'Zaloy M. HEAT-CONDUCTING PROPERTIES OF POLYMERIC MATERIALS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 2-4 (83). – С. 29-31.
13. Қодиров З., Зулфиқоров Д. ПИЛЛАНИ БУҒЛАШ ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНИНИНГ ХОМ ИПАК СИФАТИГА ТАЪСИРИ //Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 3. – С. 159-165.
14. Shokirov B. et al. Computer simulation of channel processes //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2019. – Т. 97. – С. 05012.
15. Shokirov B., Norkulov B. Nishanbaev Kh., Khurazbaev M., Nazarov B //Computer simulation of channel processes. E3S Web of Conferences. – 2019. – Т. 97. – С. 05012.
16. Matyakubov B. et al. Forebays of the poligonal cross-section of the irrigating pumping station //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – Т. 883. – №. 1. – С. 012050.
17. Matyakubov B. et al. Improving water resources management in the irrigated zone of the Aral Sea region //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 264. – С. 03006.
18. Aynakulov S. A. et al. Constructive device for sediment flushing from water acceptance structure //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – Т. 896. – №. 1. – С. 012049.
19. Мамажонов М., Шакиров Б. М., Мамажонов А. М. Результаты исследований режима работы центробежных и осевых насосов //Irrigatsiya va Melioratsiya. – 2017. – №. 1. – С. 28-31.
20. Мамажонов М. и др. ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ РЕКОМЕНДАЦИЙ ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАСОСНЫХ СТАНЦИЙ //Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-

- экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства. – 2017. – С. 1011-1016.
21. Makhmud M., Makhmudovich S. B., Ogli S. B. M. B. Forecasting factors affecting the water prevention of centrifugal pumps //European science review. – 2018. – №. 5-6. – С. 304-307.
22. Мамажонов М., Шакиров Б. М., Шакиров Б. Б. АВАНКАМЕРА ВА СУВ КАБУЛ КИЛИШ БУЛИНМАЛАРИНИНГ ГИДРАВЛИК КАРШИЛИКЛАРИ //Irrigatsiya va Melioratsiya. – 2018. – №. 1. – С. 44-46.
23. Mamajonov M., Shakirov B. M., Shermatov R. Y. HYDRAULIC OPERATING MODE OF THE WATER RECEIVING STRUCTURE OF THE POLYGONAL CROSS SECTION //European Science Review. – 2018. – №. 7-8. – С. 241-244.
24. МАМАЖОНОВ М. М., ШАКИРОВ Б. М., ШЕРМАТОВ Р. Ю. Конструктивные решения по улучшению гидравлических условий работы водоприемных камер насосных станций //Российский электронный научный журнал. – 2015. – №. 2 (16). – С. 21.
25. Makhmudovich B. S. et al. Carrying out hydraulic calculation of the aquifer of pumping stations and work with sediments (in the example of the Ulugnor pumping station) //Eurasian Journal of Engineering and Technology. – 2022. – Т. 9. – С. 88-92.
26. Mamazhonov M. et al. Polymer materials used to reduce waterjet wear of pump parts //Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing, 2022. – Т. 2176. – №. 1. – С. 012048.
27. Шакиров Б.М., Абдухалилов О.А. Ў., Сирочов А.М. Ў. НАСОС СТАНЦИЯЛАРИНИНГ СУВ ОЛИБ КЕЛУВЧИ КАНАЛИНИНГ ГИДРАВЛИК ҲИСОБИНИ БАЖАРИШ ВА ЧЎКИНДИЛАР БИЛАН КУРАШИШ (УЛУҒНОР НАСОС СТАНЦИЯСИ МИСОЛИДА) //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 183-189.
28. Olimpiev D. N. et al. Stress-strain state dams on a loess subsidence base //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – Т. 954. – №. 1. – С. 012002.
29. Bakhtiyar M. et al. Effective Use of Irrigation Water in Case of Interfarm Canal //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 2972-2980.
30. Makhmud M., Makhmudovich S. B., Yuldashevich S. R. Hydraulic operating mode of the water receiving structure of the polygonal cross section //European science review. – 2018. – №. 7-8. – С. 241-244.
31. Мамажонов М., Шакиров Б. М., Мамажонova Н. А. ПОЛИГОНАЛ КЕСИМ ЮЗАЛИ СУВ ОЛИШ ИНШООТИНИ ГИДРАВЛИК ИШ ТАРТИБИ //Irrigatsiya va Melioratsiya. – 2018. – №. 3. – С. 18-22.
32. Mamajonov M., Shakirov B. M. HYDRAULIC CONDITIONS OF THE WATER PUMPING STATION FACILITIES //Scientific-technical journal. – 2018. – Т. 22. – №. 2. – С. 39-43.
33. Шакиров, Б., Эрматов, К., Абдухалилов О., & Шакиров, Б. (2023). ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ УСТАНОВКА ПО ИССЛЕДОВАНИЮ ЦЕНТРОБЕЖНЫХ

НАСОСОВ НАКАВИТАЦИОННЫЙ И ГИДРОАБРАЗИВНЫЙ ИЗНОС. Scientific Impulse, 1(5), 1737–1742. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/3297>.

34. Kobuljon Mo'minovich , E. ., Bobur Mirzo, S. ., & Oltinoy, Q. . (2023). BOMBA KALORIMETR ISHLASH JARAYONI VA XISOBI. Scientific Impulse, 1(5), 1800–1804. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/3320>.

35. Шакиров Б. М. и др. КОНСТРУКТИВНЫЕ РАЗРАБОТКИ ПО СНИЖЕНИЮ ИНТЕНСИВНОСТИ ИЗНОСА ДЕТАЛЕЙ ЦЕНТРОБЕЖНЫХ НАСОСОВ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 18-22.

36. Шакиров Б. М. и др. СУҒОРИШ НАСОС СТАНЦИЯЛАРИНИНГ СУВ ҚАБУЛ ҚИЛИШ БЎЛИНМАЛАРИДА ЛОЙҚА ЧЎКИШИ //Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 80-91.

37. Qobuljon Muminovich Ermatov, Bobur Mirzo Baxtiyar O'g'li Shakirov, Oltinoy Akbaraliyevna Qorachayeva MARKAZDAN QOCHMA KOMPRESSORLAR GAZ YOKI XAVO OQIB O'TAYOTGANDA HARAKAT MIQDORINING O'ZGARISHINI ANIQLASH // Academic research in educational sciences. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/markazdan-qochma-kompressorlar-gaz-yoki-xavo-oqib-o-tayotganda-harakat-miqdorining-o-zgarishini-aniqlash> (дата обращения: 28.01.2023).

38. o'g'li Shakirov B. M. B., qizi Shokirova N. M. THE CONCEPT OF “FAMILY” IN PHRASEOLOGY //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1 SPECIAL. – С. 497-500.